

## TA’LIMDA INDIVIDUAL YONDASHUV

**Narbayev Nodirbek Manasbekovich**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’limni individuallashtirish tamoyili o‘qitishda o‘quvchilarning real tiplariga tayanish, Individual yondashuvning mohiyati, o‘quvchilarning qobiliyatlari, bilim darajasi va ehtiyojlari haqida soz boradi.

**Kalit so‘zlar:** qobiliyat, tamoyil, yondashuv, tayanish, ehtiyoj, qiziqish, jarayon, ta`lim, xususiyat.

Ta’limda individual yondashuv — bu har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish usulidir. Ta’limda individual yondashuv deganda har bir o‘quvchi individual, boshqalarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘qitiladi, degan ma’noni bildirmaydi. Ta’limni individuallashtirishning ma’nosи shuki, u o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlariga tayanadi, ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda quriladi. Sinf rivojlanishi va tayyorgarlik darajasi bir xil bo‘lmagan, o‘zlashtirishi turlicha va o‘qishga munosabati har xil bo‘lgan o‘quvchilardan tashkil topadi. Ta’limni individuallashtirish tamoyili o‘qitishda o‘quvchilarning real tiplariga tayanish zarurligiga asoslanadi. Bu tamoyilni programmalashtirilgan ta’lim juda yaxshi amalga oshiradi. O‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari ta’limning ayrim metodlari va usullarini tanlash hamda qo‘llanish vaqtida, uyga berilgan topshiriqlarni qismlarga bo‘lishda, sinf va nazorat ishlarining variantlarini aniqlashda hisobga olinadi.

Sinf bilan olib boriladigan ishni ayrim o‘quvchilar bilan olib boriladigan individual ish bilan birga qo‘sish mumkin. Bu yondashuv ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minalashga qaratilgan.

Individual yondashuvning mohiyati

- Har bir o‘quvchi noyob shaxsdir, ularning o‘rganish darajasi, qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlari turlicha bo‘ladi.
- Ta’lim jarayonida bu farqlarni inobatga olib, o‘quvchilarga moslashtirilgan metod va usullarni qo‘llash zarur.
- Individual yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshiradi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’limda individual yondashuvning asosiy tamoyillari

Farqlilikni hisobga olish: O‘quvchilarning qobiliyatlari, bilim darajasi va ehtiyojlari farq qiladi.

Rivojlanish sur’atlarini hisobga olish: Har bir o‘quvchining o‘sish va rivojlanish sur’ati turlicha.

O‘quvchilarning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash: O‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari ta’lim jarayoniga integratsiya qilinadi.

Moslashuvchanlik : Ta’lim usullari va materiallari o‘quvchilarning xususiyatlariga mos ravishda o‘zgartiriladi.

Faol ishtirok etish: O‘quvchi ta’lim jarayonida faol bo‘lishi, o‘z fikrini bildirishga undaladi.

Individual yondashuvning usullari

- Differensial o‘qitish — o‘quvchilarni bilim darajasi yoki qobiliyatiga ko‘ra guruhlarga ajratish.
- Individual ta’lim rejasi — har bir o‘quvchi uchun maxsus o‘quv dasturi va topshiriqlar tayyorlash.
- Moslashtirilgan materiallar — o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan o‘quv materiallari va resurslar.
- Shaxsiy maslahatlar va qo‘llab-quvvatlash — o‘qituvchi tomonidan individual yondashuv va yordam ko‘rsatish.
- O‘quvchilarning qiziqishlariga mos loyihalar va topshiriqlar.

Individual yondashuvning afzallikkabi

- O‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi oshadi.
- Ta’lim samaradorligi va sifatining oshishi.
- Har bir o‘quvchining o‘z salohiyatini to‘liq ochishi.
- Ijtimoiy va psixologik moslashuv yaxshilanadi.
- O‘quvchilarning faol ishtiroki va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

## XULOSA

Ta’limda individual yondashuv — zamonaviy ta’limning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, u o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu yondashuv yoshlarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va ularning shaxs sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.